

## O'ZBEK TILIDA ERGONIMLARINING QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI

*Dusmurotov Qahromon*

*Termiz davlat pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ergonimlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari, ergonimik birliklar, o'zbek tilidagi ergonimik birliklarning alohida jihatlari, ergonim nomlarni tanlashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlari va ularning tasnifiga alohida to'xtalindi. Bundan tashqari, maqolada berilayotgan fikrlar ergonim birliklar yordamida dalillanadi. Ergonim so'zlarning semantic-leksik xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilinadi.

**Kalit so'zlar :** ergonim, ergonim birlik, o'zbek tilida ergonimlar, leksik-semantik xususiyatlar, ergonimiya.

### ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЭРГОНИМ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

*Дусмурадов Кахрамон,*

*Магистр педагогического института ТерДПИ*

**Аннотация.** В данной статье основное внимание уделяется эргонимам и их особенностям, эргономическим единицам, особенностям эргономических единиц в узбекском языке, аспектам, которые следует учитывать при выборе эргономических наименований и их классификации. Кроме того, представленные в статье идеи обосновываются с помощью эргономических единиц. С лингвистической точки зрения изучаются семантико-лексические особенности эргонимических слов.

**Ключевые слова:** эргоним, эргонимическая единица, эргонимы в узбекском языке, лексико-семантические признаки, эргонимика.

### USAGE FEATURES OF ERGONOMICS IN UZBEKI

*Dusmurotov Kahromon,*

*Temiz davlat pedagogical institute masters*


**Annotation.** This article focuses on ergonyms and their peculiarities, ergonomic units, special aspects of ergonomic units in the Uzbek language, aspects that should be considered when choosing ergonomic names and their classification. In addition, the ideas presented in the article are substantiated using ergonomic units. The semantic-lexical features of ergonim words are studied from the linguistic point of view.

**Keywords:** ergonim, ergonim unit, ergonims in Uzbek language, lexical-semantic features, ergonymics.

Barchamizga ma`lumki, nutqimizda har bir obyekt yoki subyektning tilshunoslik nuqtayi nazaridan o`z nomlanishi mavjud. Bu nomlar ana shu predmet yoki shaxslarning ma`lum bir xususiyatlarini nazarda tutgan holda qo`llaniladi. Bugun biz siz bilan tadqiq qilmoqchi bo`lgan mavzu joy nomlariga taalluqli bo`lib, xususan, korxonalar, tashkilot, muassasa nomlari, uyushma, firma va shu kabi qator o`rinlarni nazarda tutadi. Tilshunoslikda bunday nomlar ergonimlar deb yuritiladi. Ushbu so`zning lug`aviy ma`nosiga to`xtalishdan oldin, avvalo, uning etimologiyasi haqida ma`lumotga ega bo`lsak, ergonimlarning mohiyatini ochib berishga muammosiz yondashamiz. Ergonim atamasi birinchi marta 1978-yilda rus tilshunosi N. V. Podolskaya tomonidan qo`llanilgan[3]. Bu tushuncha qadimgi yunon tilidan olingan bo`lib, ergo "*ish, savdo*" va "*ism, unvon*" so'zlaridan olingan. Biroq mohiyatan uni "ish, mehnat" deya tarjima qilish maqbulroqdir. "Ergonim" so`zi borasida turli tilshunoslar orasida turfa xil fikrlar mavjud. Latviyalik tilshunoslar orasida uni ma`lum bir maqsad uchun yaratilgan kishilar uyushmasi (*tashkilot, kompaniya yoki ta`lim muassasasi*) ma`nosini bildiruvchi to`g`ri ot, degan fikrlar mavjud[8]. Rus tilshunosligida esa ergonimlar ma`lum bir yo`nalish va faoliyat turi bilan birlashgan odamlar uyushmasini bildiruvchi tegishli ot sifatida tadqiq qilinadi[11]. Rus tilshunoslari ergonimlarni ma`lum bir harakat maqsadi uchun tuzilgan uyushmaning vazifaviy sohasini ko`rsatadigan nomlar deb belgilaydilar. Nemis tilshunosligida bu atama nafaqat shaxslar uyushmalari yoki birlashmalariga, balki *tovar va xizmatlar nomlariga (masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak va avtomobillar), san`at asarlari, nashrlar, radioeshittirish buyumlari, bolalar o`yinchoqlari, kafelar, do`konlar va sartaoshlar kabi chakana savdo nuqtalarining nomlariga* nisbatan ishlatiladi[10]. Finlyandiyada tadqiqotchilari bu atamani kamdan kam ishlatishadi va uning o`rniga "*kompaniya nomi*", "*jamoat maydonidagi nom*" yoki "*tijorat nomi*" deb yuritishni afzal ko`radilar. Ularning fikricha, "ergonim" *maktab, teatr, cherkov va byurokratik tashkilotlar* kabi muassasalarning nomlarini ham ifodalaydi.

Ergonim - bu tashkilotning o'ziga xos nomi yoki unvoni bo'lib, uning vazifasini aks ettiradi (*masalan, xo'jalik birlashmalari, o'quv muassasalari, sanoat kompaniyalari, agentliklar, banklar, do'konlar, madaniyat muassasalari, sport majmualari va stadionlar*). Ergonim - shaharning til makonining birligi hisoblanadi.

### Ergonimik birliklar(1-chizma).



Ergonim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning muhim belgisi hisoblanadi va tarix va kundalik hayotni o`zida mujassam aylagan nomlar sanaladi. Joyning ergonimlarini o`rganish uning lingvistik portretini chizish, uning onomastik makonining tipik va individual tomonlarini tavsiflash va uning kundalik hayotining suratini yaratish ergonimik birliklar tasnifini talab qiladi.

Ergonimlar turlicha usulda shakllantirilishi mumkin. Uni yuzaga keltirishning qator usullari mavjud bo`lib, misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- a) **affiksatsiya usuli** – ushbu usulda ergonimlar qo`shimchalar yordamida hosil qilinadi: “Choyxonachi” maskani va hokazo;
- b) **birikmaviy ergonimlar** – bu usulda so`zlar birikmaviy tarzda shakllantiriladi, xususan, **Cambridge school, Merit maktabi, Oxbridge education** va hokazo;
- c) **qisqartmalar** yordamida, masalan, **“L&W”, KFS** va boshqalar;
- d) **sonlar** yordamida : **48, 55&100, 7\*7;**
- e) **ma`nosi noma`lum tushunchalar** yordamida ergonimlar hosil qilish: **“Yaposh”, “Merit”, “Yaskanamu”** va hokazo.
- f) **Sifat, fe`l yordamida** ergonim hosil qilish – bu holatda ergonim tarkibida so`z sifat yoki fe`l ko`rinishiga ega bo`ladi: **Love you, Beautiful** va hokazo.

Ergonimning o'ziga xos ism bo'lishdan tashqari turli vazifalarni ham bajaradi[2], xususan:


- **xabar berish vazifasi** – ushbu vazifada shaxs ergonimga berilgan nomga qarab joning qanday vazifasi mavjudligini anglashi mumkin;

- **reklama** – bunda joy egasi ergonim nomining qiziqarli tanlanishi evaziga reklama xususiyatlarini mujassam etishi mumkin;

- estetik – ushbu vazifasi kishida ijobiy munosabatning yuzaga kelishiga ko`maklashadi;

- tarixiylik vazifasi – ushbu vazifa yordamida ergonomik birliklarning tarixan nomlanishi qadimiyligni aks ettirishi mumkin va hokazolar.

### Ergonimlarning vazifaviy xususiyatlari (2-chizma)



Yana shuni ham ta`kidlash lozimki, bugungi kunda o`zbek tilida ergonom nomlar bilan bog`liq ba`zi muammolarni ijtimoiy hayotimizda kuzatishimiz mumkin, ya`ni joylarga nom tanlashda aynan uning ma`nosiga emas, balki so`zning jarangdorligiga e`tibor berish tilimizga nisbatan hurmatsizlik ruhini uyg`otadi, ya`ni tanlangan nomlarda o`zbek tiliga xos milliylikning mavjud bo`lmasligi, unda boshqa millat vakillari nutqiga xos so`zlardan foydalanish biz uchun achinarli hol hisoblanadi, xususan, ergonom sifatida tanlangan ushbu nomlarga e`tibor bering: “Богиня”, “Virgin”. Ushbu nomlardan birinchisi “ma`buda” deya tarjima qilinadi, biroq bu bizning islomiy madaniyatimizga ziddiyatni aks ettiradi. Ikkinchi nomning esa “Bokira” deb tarjima qilinishi joy nomiga nisbatan bee`tiborlik ila yondashuvning natijasi hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o`zbek tilida nutqimizda qo`llanilayotgan ergonomlar o`ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning vazifaviy ma`nolari tanlanayotgan o`ringa nisbatan aks ettiriladi. Aytish joizki, o`ringa nisbatan qo`llanilayotgan nomning did bilan tanlanishi, iloji boricha ergonomlarga o`zbekcha nom tanlash tilimizning sofligini saqlashga ko`maklashadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Наука, М. (1978). [Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии](#) (in Russian). p. 166. Retrieved 20 July 2020.<sup>[failed verification]</sup>
2. Smirnova, N. (2017). "[Naming in the public sphere of Stavropol city: sacred and profane](#)" (PDF). *Proceedings of ICONN. Rostov-on-Don (4): 1048–1057*. Retrieved 20 July 2020.
3. Cotticelli, Paulo; Rizza, Alfredo (2018). *Language, Media and Economy in Virtual and Real Life: New Perspectives*. Cambridge Scholars. ISBN 9781527521452.
4. Frétey, Thierry (2 December 2019). "[Capitalised epithets in the works of Linnaeus \(1758–1767\): findings and consequences in herpetology](#)". *Bionomina*. **16** (1): 22–45. doi:10.11646/bionomina.16.1.2. ISSN 1179-7657. Retrieved 20 July 2020.
5. Sjöblom, Paula (2017). [Commercial names and unestablished terminology](#) (PDF). *Biblioteca técnica de política lingüística*. pp. 92–98. doi:10.2436/15.8040.01.12. Retrieved 20 July 2020.
6. [The theory of translation](#). Moscow. 1985.
7. Курбанова, М.Г. (2014). [Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика](#) (PDF) (in Russian). Astrakhan. p. 191.
8. Емельянова, А.М. (2007). [Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города/А.М.](#) (in Russian). Уфа: БГПУ: Емельянова. p. 170.
9. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
10. [www.hozir.org](http://www.hozir.org)
11. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
12. [www.google.com](http://www.google.com)